

Fransuz mediamatnlarini o'zbek tiliga tarjimasida leksik birliklarni berilishi

Karimova Nilufar Xabibullayevna
nkarimova403@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Maqola, fransuz tilidagi media matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni va leksik birliklarni qanday qilib to'g'ri ifodalash zarurligini tahlil qiladi. Media matnlar ommaviy axborot vositalari orqali keng auditoriyaga yetkaziladigan axborot manbai bo'lib, ularni tarjima qilishda faqatgina lingvistik elementlarni emas, balki matnning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini ham inobatga olish lozim. Maqolada tillararo ekvivalentlik tushunchasining media matn tarjimasidagi o'rni va ahamiyati atroflicha ko'rib chiqiladi. Xususan, o'zbek va fransuz tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning leksik, grammatik va sintaktik tafovutlari tarjimon uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, frazeologik birliklar, idiomalar va madaniy jihatdan yuklangan so'zlarni tarjima qilishda mos ekvivalent topish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tarjimon nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos sifatida ham harakat qilishi kerak. Bundan tashqari, maqolada global kommunikatsiya va axborot almashinuvi jarayonida media matn tarjimasining roli alohida yoritiladi. Hozirgi axborot asrida tarjima qilingan matnlarning aniqligi va tushunarligi ommaviy axborot vositalari orqali yetkaziladigan xabarlarining samaradorligini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, tarjimonlar nafaqat aniq ekvivalent topish, balki matnning stilistik va funksional jihatlariga ham e'tibor berishlari lozim. Ushbu maqola ilmiy tadqiqotlar va tarjima amaliyoti uchun muhim nazariy hamda amaliy asos yaratib, tarjimonlar uchun foydali tavsiyalar beradi. Media matn tarjimasida uchraydigan qiyinchiliklarni yengish va sifatli tarjima qilish uchun ilmiy yondashuv, madaniy kontekstni tushunish va tilshunoslik bilimlari zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: media matn, tarjima, ekvivalentlik, leksik birliklar, semantika, sintaksis, madaniy kontekst, kommunikatsiya, axborot, media platforma, ijtimoiy tarmoqlar, reklama, ma'lumot tarqatish, ommaviy axborot vositalari, matbuot.

Передача лексических единиц при переводе французских медиатекстов на узбекский язык

Каримова Нилуфар Хабибуллаевна
nkarimova403@gmail.com

Старший преподаватель
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация. В статье анализируются основные проблемы, возникающие при переводе французских медиатекстов на узбекский язык, а также рассматриваются способы адекватного выражения лексических единиц. Медиатексты представляют собой источники информации, передаваемые широкой аудитории через средства массовой информации, и их перевод требует учета не только лингвистических элементов, но и социальных и культурных контекстов текста. В статье подробно рассматривается концепция межъязыковой эквивалентности и ее значение в переводе медиатекстов. В частности, узбекский и французский языки принадлежат к разным языковым семьям, и их лексические, грамматические и синтаксические различия создают дополнительные трудности для переводчиков. Особенно это касается перевода фразеологических единиц,

идиом и лексем с культурной нагрузкой, для которых поиск адекватного эквивалента имеет ключевое значение. В связи с этим переводчик должен выступать не только в роли лингвиста, но и культуролога. Кроме того, в статье подчеркивается роль перевода медиатекстов в глобальной коммуникации и обмене информацией. В современную информационную эпоху точность и понятность переведенных текстов напрямую влияют на эффективность передачи сообщений через средства массовой информации. С этой точки зрения переводчики должны уделять внимание не только поиску точных эквивалентов, но и сохранению стилистических и функциональных характеристик текста. Данная статья создает важную теоретическую и практическую основу для научных исследований и переводческой практики, а также предлагает полезные рекомендации для переводчиков. Подчеркивается, что преодоление трудностей в переводе медиатекстов и обеспечение высокого качества перевода требуют научного подхода, понимания культурного контекста и лингвистической компетентности.

Ключевые слова: медийный текст, перевод, эквивалентность, лексические единицы, семантика, синтаксис, культурный контекст, коммуникация, информация, медиа-платформа, социальные сети, реклама, распространение информации, средства массовой информации, пресса.

The representation of lexical units in the translation of french media texts into Uzbek

Karimova Nilufar Khabibullayevna
nkarimova403@gmail.com

Senior Lecturer

Alisher Navoiy Tashkent State
University of Uzbek Language and Literature

Annotation. *This article analyzes the main challenges encountered in translating French media texts into Uzbek and examines how lexical units should be accurately conveyed. Media texts serve as a primary source of information disseminated to a broad audience through mass media, and their translation requires consideration not only of linguistic elements but also of the social and cultural contexts of the text. The article thoroughly explores the concept of interlingual equivalence and its significance in media text translation. Notably, Uzbek and French belong to different language families, and their lexical, grammatical, and syntactic differences pose additional difficulties for translators. The challenge is particularly evident in the translation of phraseological units, idioms, and culturally embedded words, where finding an appropriate equivalent is of crucial importance. Therefore, a translator must not only be a linguist but also act as a cultural mediator. Moreover, the article highlights the role of media text translation in the global communication and information exchange process. In the present era of information, the accuracy and clarity of translated texts directly impact the effectiveness of messages conveyed through mass media. From this perspective, translators should focus not only on finding precise equivalents but also on preserving the stylistic and functional aspects of the text. This article provides both theoretical and practical foundations for academic research and translation practice, offering valuable recommendations for translators. It emphasizes that overcoming challenges in media text translation and ensuring high-quality translation require a scientific approach, an understanding of cultural context, and linguistic expertise.*

Keywords: *media text, translation, equivalence, lexical units, semantics, syntax, cultural context, communication, information, media platform, social networks, advertising, information dissemination, mass media, press.*

Zamonaviy globalizatsiya davrida tillararo tarjima – bu jahon miqyosidagi axborot almashuv va kommunikatsiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. “*Tarjima – bu faqat soʻzlar oʻrtasidagi almashtirish emas, balki maʼnolar, ruh va mazmunlarning bir madaniyatdan ikkinchisiga oʻtishi*” (Mirziyoyev, 2022). Ayniqsa, media matnlari tarjimasi – bu tezkor axborot berish va auditoriya eʼtiborini jalb qilishga qaratilgan maxsus janrdir. Media matnlari tarjimasi jarayonida ekvivalentlik tamoyili – yaʼni bir tilning birliklarini boshqa tilning birliklari bilan almashtirish – eng muhim omillardan biridir.

Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda. Bu munosabatlarning rivojlanishi esa tillararo tarjimaga boʻlgan talabni yanada oshirmoqda. Media matnlari tarjimasi – bu faqatgina soʻzlar almashtirish emas, balki ikki turli madaniyat va mentalitet oʻrtasidagi muloqotdir. Shuning uchun oʻzbek va fransuz tillaridagi media matnlari tarjima sida ekvivalentlikning xususiyatlarini oʻrganish dolzarb masala sifatida qaraladi.

Tilshunoslikda ekvivalentlik tushunchasi tarjimaning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ekvivalentlik tarjima qilinayotgan matnning asl matnga maʼno jihatidan toʻliq mos kelishini anglatadi. Biroq, tillarning oʻziga xos xususiyatlari, madaniyat va turmush tarzidagi farqlar tufayli tarjimada toʻliq ekvivalentlikka erishish doimo ham mumkin boʻlavermaydi.

Media matnlari – bu gazeta va jurnallar, radio va televideniya, internet va boshqa ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan xabarlar, maqolalar, intervyular va boshqa turdagi materiallardir. Media matnlari auditoriyaga tez va oson yetib borishi, taʼsirchan va tushunarli boʻlishi kerak. Shuning uchun media matnlarida tilning ekspressiv vazifasi, yaʼni taʼsir etish, ishontrish, his-tuygʻularni uygʻotish kabi vazifalari muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbek va fransuz tillari turli til oilalariga mansub boʻlganligi tufayli ularning grammatik va leksik strukturasi jiddiy farqlar mavjud. Bu farqlar tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklar tugʻdiradi (Shamaqsudova, 2018).

G.X. Bakieva hamda D.M. Teshabayeva «Mediamakonda matn» nomli monografiyasida bugungi kunda “OAV tili” tushunchasining uch xil maʼnoda qoʻllanilayotganini aytib oʻtishadi, yaʼni 1) OAV yaratgan va tarqatgan barcha turdagi matnlar majmui; 2) barqaror tilning ichki sistemasi; 3) OAVning har biriga mos verbal va aaudiovizual qismlarning mutanosibligidan iborat alohida qorishma belgilar sistemasi. Darhaqiqat, OAV tili jumladan, «matbuot tili namunaviy til boʻlib qolishi» u oʻzida ham standart, ham taʼsirchan vositalarni jamlamogʻi darkor (Abdusaidov, 2005).

Gazeta matnning uslubiy oʻziga xosligini aniqlash va tavsiflashda maʼlum bir matnning umumiy uslub qonuniyatlarini bilish alohida ahamiyat kasb etadi. D.M. Teshabaeva “Publitsistika jamiyatning siyosiy-mafkuraviy sohasiga xizmat qiladi. Dastavval ushbu uslubning asosiy funksiyasi sifatida tilning taʼsir etish xususiyati eʼtirof qilinardi. Lekin bugungi kunda axborotning ijtimoiy hayotdagi oʻrni naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganiga guvoh boʻlayotirmiz”, deb taʼkidlaydi (Teshaboyeva, 2012).

Baʼzi tilshunoslar matnga asosan yozma hujjat tegishli ekanligini taʼkidlashadi. Masalan, mashhur tilshunos I.Galperin matnga quyidagicha taʼrif beradi: “Matn – bu yozma hujjat koʻrinishdagi tugallangan, xolislikka ega ogʻzaki ijodiy jarayondagi asar; sarlavha va bir qator til birliklaridan tarkib topgan, maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan va pragmatik koʻrsatmaga ega, turli leksik, grammatik, uslubiy aloqalarning turlari bilan birlashtirilgan asar” (Galperin, 1981)

Fransuz tilida matn tarjimasi boʻyicha bir qator olimlar muhim ilmiy ishlar olib borishgan. Masalan, Jan-Pol Vine va Jan Darbelne oʻzlarining asarida tarjima jarayonidagi transformatsiyalar va muammolarni tahlil qilishgan. Ular tarjima strategiyalari va usullarini oʻrganib, turli tillar oʻrtasidagi semantik va sintaksik oʻzgarishlarni tasniflashgan (Jan-Pol Vine i Darbelnet, 1958). Shuningdek, Antuan Berman ham tarjima nazariyasiga katta hissa qoʻshgan. Uning asarida tarjima jarayonidagi muammolar va chegaralar haqida fikr yuritilgan. A.Berman tarjimadagi maʼno yoʻqotish va oʻzgarishlarni tahlil qilib, ularni minimallashtirish yoʻllarini taklif qilgan (Antuan Berman, 2018). Bu

olimlarning ishlari tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning asarlari tarjima sohasidagi tadqiqotlar uchun asosiy manbalardan hisoblanadi. Fransuz va o‘zbek tillaridagi media matnlarini tadqiq etishda ularning semantik, sintaksis, leksik va stilistik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Fransuz va o‘zbek tarjima nazariyalari orasidagi asosiy farq shundaki, fransuz tarjimashunoslari matn shaklini saqlashga e‘tibor bersa, o‘zbek tarjimashunoslari matn mazmunini tushunarli yetkazishga urg‘u beradilar.

Media matnlarni tarjima qilish jarayonidagi qiyinchiliklar, turli omillar tufayli yanada murakkablashishi mumkin. Bu qiyinchiliklar tarjimonning mahorati va kreativligini sinovdan o‘tkazadi. Quyidagi batafsil tahlil, media matnlarni tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklarni chuqurroq yoritadi:

Fransuz tilidagi media matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida leksik birliklarni qanday qilib to‘g‘ri va samarali berish juda muhimdir. Bu jarayon bir nechta muhim qadamlarni o‘z ichiga oladi va tarjimonning til bilimlari, madaniy tushunchalari hamda ijodiy yondashuvini talab qiladi.

Fransuz tilidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda, tarjimon so‘zning ma‘nosini, kontekstini va uslubini to‘liq tushunishi kerak. Masalan, fransuz tilidagi “soutien” so‘zi turli kontekstlarda “yordam”, “qo‘llab-quvvatlash” kabi ma‘nolarni anglatishi mumkin. Shuning uchun, tarjimon matnning mazmunini to‘g‘ri tushunib, eng mos leksik birlikni tanlashi zarur.

Mazkur matn Fransiyaning “L’Express” nashridan olingan. Ushbu sayt lexpress.fr axborot agentligi bo‘lib, u xalqaro siyosat, iqtisodiyot va dolzarb voqealar haqida maqolalar chop etadi. Matnning aniq manbasi: Sayt nomi: L’Express. Havola: lexpress.fr/monde/emmanuel-macron (suratda qisman ko‘rinib turibdi). Maqola muallifi: Ambre Xerri (Ambre Xerri avec AFP). Chop etilgan sana: 2-noyabr, 2023

Matnning o‘zbek tiliga tarjimasi va leksik tahlilini qilib chiqamiz:

Fransuzcha matn:	O‘zbekcha matn:
<p>"Emmanuel Macron : en Ouzbékistan, la valse des contrats continue."</p> <p><i>"C'est dans l'actu. Après une escale au Kazakhstan, le chef de l'Etat français était attendu en Ouzbékistan, qui tente depuis plusieurs années de revenir sur le devant de la scène internationale."</i></p> <p>Sayt: https://www.lexpress.fr/monde/emmanuel-macron-en-ouzbekistan-la-valse-des-contrats-continue-GGXBGCPGJHWPFC3UZQI64TNSU/</p>	<p>"Emmanuel Makron: O‘zbekistonda shartnomalar valsini davom etmoqda."</p> <p><i>"Bu dolzarb yangilik. Qozog‘istondagi qisqa to‘xtashdan so‘ng, Fransiya davlat rahbari O‘zbekistonda kutib olindi. O‘zbekiston esa so‘nggi yillarda xalqaro sahnaga qaytishga harakat qilmoqda."</i></p> <p>Sayt: https://www.facebook.com/share/p/1FJLRweKi5/?mibextid=oFDknk</p>

Yuqoridagi ma‘lumotni **leksik tahlil** qilamiz. **La valse des contrats continue** → *Shartnomalar valsini davom etmoqda*. **Valse** fransuz tilida “vals” (raqs turi) degan ma‘noni anglatadi. Bu ibora metafora bo‘lib, *shartnomalar tez-tez imzolalanayotganini* bildiradi. **Des contrats** - *shartnomalar*, ya‘ni iqtisodiy yoki diplomatik kelishuvlar nazarda tutilgan. **Continue** - *davom etmoqda*, ya‘ni bu jarayon tugamagan. **C’est dans l’actu.** → *Bu dolzarb yangilik*.

Actu – “actualité” (dolzarb yangilik, xabarlar) so‘zining qisqartmasi. **C’est (bu)** shunchaki e‘tiborni tortish uchun ishlatilgan. **Après une escale au Kazakhstan** → *Qozog‘istondagi qisqa to‘xtashdan so‘ng*. **Escale** – “qisqa to‘xtash, tranzit” ma‘nosini anglatadi, bu odatda aviaqatnovga nisbatan ishlatiladi. **Après** – “so‘ng”, vaqt bog‘lovchisi sifatida ishlatilgan. **Le chef de l’Etat**

français → *Fransiya davlat rahbari*. **Chef de l'Etat** - *davlat rahbari* degan rasmiy ibora. Bu joyda **Président** (*prezident*) soʻzi ishlatilmagan, lekin maʼno oʻsha. **Était attendu en Ouzbékistan** → *Oʻzbekistonda kutib olindi*. **Attendu** - *kutildi, qarshi olindi* degan maʼnoni anglatadi.

Majhullik nisbat shaklda **était attendu** kelgani uchun bu aniq shaxs tomonidan amalga oshirilgan ish emas, balki umumiy kutish holati.

Qui tente depuis plusieurs années → *Oʻzbekiston esa soʻnggi yillarda harakat qilmoqda*. **Tente** - *harakat qilmoqda, urinyapti*. **Depuis plusieurs années** - *bir necha yil davomida*, yaʼni uzoq vaqt jarayon davom etgan. **De revenir sur le devant de la scène internationale** → *Xalqaro sahnaga qaytishga harakat qilmoqda*. **Revenir** – “*qaytmoq*”, yaʼni oldin boʻlgan joyga ya na kelish. **Le devant de la scène internationale** - *xalqaro sahnaning old qatoriga*, yaʼni Oʻzbekiston global maydondagi faol oʻrnini qayta tiklashga intilmoqda.

Xulosa qilsak, mazkur maqola Emmanuel Makronning Markaziy Osiyoga, xususan Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi haqida yozilgan boʻlib, uning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Bu matnda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi, bu tashrif doirasida shartnomalar imzolangani va Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi faolligini oshirishga intilishi haqida gap ketmoqda. Metaforalar **shartnomalar vals**i ham ishlatilgan boʻlib, bu diplomatik va iqtisodiy jarayonlarning dinamikligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. (2022). Tillararo tushunish – millatlararo doʻstlik va hamkorlikning asosi. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti*. Retrieved from www.president.uz
2. Abdusaidov, A. (2005). *Gazeta janrlarining til xususiyatlari* (Doctoral dissertation). Samarkand, Uzbekistan.
3. Berman, A. (2018, July). The age of translation. *France*.
4. Galperin, I. R. (1981). *Tekst kak obʼyekt lingvisticheskogo issledovaniya*. Nauka.
5. Teshabayeva, D. M. (2012). *Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (Oʻzbekiston Respublikasi OAV misolida)* (Doctoral dissertation). Tashkent, Uzbekistan.
6. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). *Stylistic comparison of French and English*. Canada.
7. L'express. (n.d.). Emmanuel Macron en Ouzbékistan: La valse des contrats continue. *L'Express*. Retrieved from <https://www.lexpress.fr/monde/emmanuel-macron-en-ouzbekistan-la-valse-des-contrats-continue-GGXBGCPGJHWPFC3UZQI64TNSU/>
8. Facebook. (n.d.). Retrieved from <https://www.facebook.com/share/p/1FJLRweKi5/?mibextid=oFDknk>
9. *Til texnologiyasi* nomli qoʻllanma mashina tarjima texnologiyalari va kompyuter lingvistikasi boʻyicha nazariy va amaliy bilimlar. Retrieved from https://tsuull.uz/sites/default/files/til_tehnologiyasi.pdf
10. *Korpus lingvistikasi* nomli qoʻllanma tarjima jarayonida korpuslardan foydalanish, elektron lugʻatlar va tezauruslar bilan ishlash boʻyicha maʼlumotlar. Retrieved from <https://pureportal.spbu.ru/files/104745919/...1.pdfcom>
11. *Media va Axborot Savodxonligi: Talabalar Uchun Qoʻllanma* media matnlarini tushunish va tahlil qilish boʻyicha bilimlarni taqdim etadi. Retrieved from <https://www.coursehero.com/file/242249695/Media-majmuadoc.com>